

O‘QUVCHILAR ORASIDA HUQUQBUZARLIKLARNI OLDINI OLISHDA HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

Odiljanov Muxammadsiddiq Oqiljon o‘g‘li

Namangan xarbiy prokraturasi katta tergovchisi adliya kapitani

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘quvchilar orasida huquqbuzarliklarning oldini olishda huquqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik va metodik mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ta’lim jarayonida huquqiy ongni rivojlantirish, profilaktik ishlarni samarali tashkil etish hamda innovatsion yondashuvlarni joriy etish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqbuzarlik, pedagogik mexanizm, metodik yondashuv, profilaktika, tarbiya.*

ФОРМИРОВАНИЕ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ СРЕДИ СТУДЕНТОВ В ЦЕЛЯХ ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ ПРЕСТУПЛЕНИЙ

Аннотация

В данной статье анализируются педагогические и методические механизмы формирования правовой культуры среди учащихся в рамках профилактики правонарушений. Также рассматриваются вопросы развития правовой осведомленности в образовательном процессе, эффективная организация профилактической работы и внедрение инновационных подходов.

Ключевые слова: *правовая культура, правовая осведомленность, правонарушение, педагогический механизм, методический подход, профилактика, образование.*

FORMING LEGAL CULTURE AMONG STUDENTS IN PREVENTING CRIME

Abstract

In this state, pedagogic and methodical mechanisms for the formation of legal culture are analyzed in the framework of prevention of legal violations. Takje rassmatrivayutsya voprosy razvitiya pravovoy osvedomlennosti v obrazovatelnom protesse, effektivnaya organization profilaticheskoi raboty i nnedrenie innovatsionnykh podhodov.

Keywords: *pravovaya kultura, pravovaya osvedomlennost, pravonarushenie, pedagogichesky mechanism, methodicheskyy approach, prevention, education.*

Jahonda yoshlar hayotida yuzaga keladigan turli muammolarni aniqlash, ularning shakllanish

jarayonlarini pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilish, mavjud muammolarga nisbatan samarali chora-tadbirlarni belgilash hamda oqilona yechim topish yo‘llarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda nafaqat muammoni aniqlash, balki natijalarni to‘g‘ri baholash, o‘z vaqtida va asoslangan qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, Birlashgan Millatlar

Tashkilotining Narkotiklar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi (UNODC) tomonidan ilgari surilgan “Line Up, Live Up”¹ tashabbuslari o‘smirlarning turli emotsional muammolarga qarshi chidamliligini oshirish, ijtimoiy faolligini rivojlantirish hamda sog‘lom hayot tarzini targ‘ib etishga qaratilgan bo‘lsa, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (OSCE) tashabbuslari esa

o‘quvchilar o‘rtasida huquqbuzarliklarni oldini olish, jinoyatga moyilligi mavjud bo‘lgan o‘smirlarni ijtimoiy-pedagogik jihatdan korreksiya qilishning samarali mexanizmlarini yaratish va mazkur jarayonning metodologik bazasini mustahkamlashni muhim pedagogik muammo sifatida ko‘rib chiqmoqda.

Dunyoda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy o‘zgarishlar, jamiyatning ma‘naviy-axloqiy hayotidagi yangilanishlar ta‘limtarbiya jarayoniga bevosita ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, savodsizlik darajasining oshishi, bilim olishga bo‘lgan qiziqishning susayishi, yoshlarning intellectual salohiyatidagi pasayish holatlari ularning kelajak hayotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, ba‘zi hollarda bilib-bilmay jinoyat ko‘chasiga kirib qolishiga zamin yaratmoqda. Shu bois, ta‘lim tizimida yuzaga kelayotgan mazkur muammolarni integratsion yondashuv asosida tadqiq etish, jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan “jinoyatdan holi hudud” g‘oyasini shakllantirish, shuningdek, pedagogik jarayonlar va tarbiyaviy muhitni barqarorlashtirishga xizmat qiluvchi sinfdan tashqari ishlarning samarali metodik bazasini ishlab chiqish bugungi kunda ilmiy jamoatchilikdan chuqur izlanishlar olib borishni talab etmoqda. Mazkur yondashuv

nafaqat o‘quvchilar ongida huquqiy madaniyatni mustahkamlash, balki ularni ijtimoiy faol, ongli, ma‘naviy barkamol shaxslar etib tarbiyalashga, maktab muhitini xavfsiz va sog‘lom saqlashga ham xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Respublikamizda o‘smirlar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olish, ta‘limtarbiya muhitida o‘quvchilarni pedagogik rehabilitatsiya qilish va profilaktik tadbirlar asosida o‘quv-tarbiya jarayoni mazmunini mustahkamlashga qaratilgan ilmiy, huquqiy va ijtimoiy asoslar yaratilgan. Ta‘lim muassasalari hamda jamoatchilik tuzilmalari ko‘magida o‘smirlar bilan ishlash tizimida voyaga yetmagan

shaxsning qarovsiz qolganligi holatlarini aniqlash, kuzatish, o‘rganish va profilaktika tadbirlari olib borish ijtimoiy-pedagogik zaruratga aylanmoqda. Bu jarayonda e‘tibordan chetda qolayotgan, nosog‘lom muhitda voyaga yetayotgan o‘smirlar va jinoyatchilikka moyilligi bor vaziyatlarni erta aniqlash va ularning ijtimoiy-pedagogik korreksiyasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Profilaktika faoliyatida jamoat tashkilotlari va ta‘lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik kuchaytirish, huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash, ularning kelib chiqish sabablari va omillarini tahlil qilish, shuningdek pedagogik ishlov berishga oid kompleks tadbirlarni amalga oshirishning pedagogik tamoyillarni mustahkamlash dolzarb vazifaga aylanmoqda. O‘quvchilar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olishda pedagogik faoliyat klasteri subyektlarining o‘zaro hamkorligini ta‘minlash, o‘quvchilarning dars va darsdan tashqari vaqtini samarali tashkil etishning ilmiy-metodik asoslari hamda amalga oshirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish bo‘yicha fundamental tadqiqotlarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Huquqbuzarliklarning oldini olish faqat jazolash orqali emas, balki yoshlarning ongida huquqiy madaniyatni shakllantirish orqali samarali amalga oshiriladi. Chunki qonunni bilgan va unga hurmat bilan qaragan shaxs huquqbuzarlik sodir etmaydi.

Umumta‘lim maktablari huquqiy ta‘lim samaradorligiga erishish qo‘yidagi pedagogik shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qilishi lozim:

1. Yoshlarda huquqiy me‘yorlar, qonunlarning nafaqat davlat, balki shaxs manfaatlarini birdek himoya qilishiga nisbatan ishonchning shakllanishiga erishish.
2. Umumta‘lim maktablari o‘quvchilarida huquqqa oid bilimlarni o‘zlashtirishga bo‘lgan ichki ehtiyoj va qiziqishning yuzaga kelishini ta‘minlash.
3. O‘quvchilarda ijtimoiy-huquqiy me‘yorlar, qonunlarga nisbatan hurmatni qaror toptirish.
4. Umumta‘lim maktablari o‘quvchilarida huquqiy faoliyatga oid ko‘nikma va malakalarni shakllantirish.
5. O‘quvchilarda har qanday ko‘rinishdagi huquqbuzarlikka qarshi kurashish tuyg‘usini tarbiyalash. Umumta‘lim maktablari o‘quvchilarida huquqiy ta‘lim samaradorligini oshirish uchun uzluksiz ta‘lim tizimining barcha bo‘g‘inlari, shuningdek, ijtimoiy tashkilotlar, oila, mahalla kabilar bilan mustahkam aloqa o‘rnatishga erishish pedagogika fanida muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, shaxsda huquqiy ong va madaniyatning shakllanishi ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Binobarin, shaxsning ijtimoiy me‘yor hamda qonunlarga bo‘lgan munosabati, uning xatti-harakatlari mohiyatini baholash jamiyat irodasining ifodasi demakdir. Huquqshunoslik yo‘nalishida aksariyat hollarda shaxs tomonidan tashkil etilgan harakatgina emas, balki harakatsizlik ham ijtimoiy-huquqiy jihatdan baholanadi. Shuning uchun ham umumta‘lim maktablari o‘quvchilarini egallayotgan

mutaxassisliklari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatish davrida huquqiy me‘yorlarga qat‘iy amal qilishga ham odatlantirish lozim va ularda huquqbuzarlikning oldini olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish kerak.

O‘quvchilar orasida huquqbuzarliklarni oldini olishda huquqiy madaniyatni shakllantirish — bu yoshlarning huquqiy ongini yuksaltirish, qonunlarga hurmat va mas‘uliyat hissini tarbiyalash orqali jinoyatchilikka moyillikni kamaytirishning asosiy pedagogik va ijtimoiy mexanizmidir. Bu jarayon ta‘lim muassasalarida interaktiv metodlar, huquqiy savodxonlik darslari va oila-maktab hamkorligi orqali tizimli amalga oshiriladi.

Xulosa

O‘quvchilar orasida huquqbuzarliklarning oldini olishda huquqiy madaniyatni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Pedagogik va metodik mexanizmlarni takomillashtirish orqali yoshlarning huquqiy ongini oshirish, ularni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash mumkin.

Ta‘lim tizimida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish, oila va maktab hamkorligini mustahkamlash ushbu jarayonning samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xolmo‘minov Q.T. Davlat va huquq nazariyasi. — T.: 1998.
Davlat va huquq asoslari: Izohli lug‘at. — T.: 1996.
Davlat va huquq nazariyasi. — T.: TDYUI, 2000.
2. Исламов З.И. Теория государства и права. Ч. I, II. — Т.: 1997.
3. НИКИТИН А.Ф. 200 вопросов и ответов по основам государства и права. — М.: 1998.
4. Гришина Е.П. Основы государства и права. — М.: 1995.
5. Odiljanova G.I. Umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga refleksiv yondashuv texnologiyasini joriy etish va takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishini o‘tkazish metodikasi // NamDU Ilmiy axborotnomasi №9 Namangan 2025 –B.739-743
6. Odiljanova G.I. Umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni tashkilotlash va boshqarishga refleksiv yondashuv texnologiyasini joriy etish va takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlari va samaradorlik ko‘rsatichlari Namangan davlat pedagogika institut “Ta‘lim va taraqqiyot” ilmiy uslubiy jurnali №5 2025 –B. 276-286